

8-SINF JAHON TARIXI(2024)

XRONOLOGIYA

YILLAR

711–714-yillar — Arab xalifaligi Pireney yarimorolidagi Vestgot qirolligini bo'ysundirdi.

713–718-yillar — Pireney yarimorolining janubi-g'arbiy qismidagi Portugaliya arablar tomonidan bosib olindi.

756-yil — Ispaniyada Arab xalifaligidan ilk mustaqil amirlik tashkil topdi. X asrdan u Qurdoba amirligi deb ataldi.

843-yil — Verdenda Karolinglar imperiyasi uch qismga bo'lindi.

868-yil — Rekonkista davrida Vimara Peresh boshchiligida Portugaliya grafligi tuzildi.

905-yil — Navarraning birinchi qiroli Sancho Garsiya bo'lgan.

905–1512-yillarda — Navarra Pireney yarimorolidagi davlat bo'lib, uning poytaxti Pamplona edi.

960–1385-yillarda — Polshani Piastlar sulolasi idora qildi.

987-yil — Karolinglar sulolasining so'nggi vakili Lyudovik V vafotidan so'ng Kapetinglar sulolasining dastlabki vakili Gugo Kapet hokimiyat tepasiga keldi.

1000-yil — Vengriya qiroli Ishtvan Buyuk toj kiydi. Uning davrida Vengriya xristian dinini qabul qilib, mamlakat birlashtirildi.

1018–1187-yillarda — Bolgariya Vizantiya imperiyasi hukmronligi ostida bo'ldi.

1076-yil — Marokash sultoni Abu Bakr Gana davlatiga yurish qilib, uni bosib oldi va har yili o'lpon to'lashga majbur qildi.

1076–1134-yillarda — Navarra davlati Aragonga tobe bo'lgan.

1130-yil — Vladimir-Suzdal o'lkasi Kiyev Rusidan mustaqil bo'ldi.

1136-yil — Knyaz Vsevolod Mstislavich taxtdan ag'darilib, Novgorod o'lkasida respublika boshqaruvi shakllandi.

1137-yilda — Korteshning birinchi yig'ilishi Kastiliyada chaqirilgan.

1139-yil — Qirol Afonso Enrikesh Portugaliyaning mustaqilligini e'lon qildi va uning birinchi qiroli bo'ldi.

1147-yilda — Knyaz Yuriy Dolgorukiy Moskva nomi birinchi marta tilga olingan hududda shahar asosiga tamal toshini qo'ydi.

1156-yil — Yaponiyada Tayra va Minamoto xonadonlari o'rtasida urush boshlandi.

1185-yil — Minamoto Yoritomo barcha raqiblarini mag'lub etib, Yaponiyada o'z hokimiyatini o'rnatdi.

1187-yil — Asen qo'zg'olon ko'tarib, Ikkinchi Bolgariya podshohligiga asos soldi.

1188-yil — Kastiliyada shaharliklar va dehqonlar vakillari kortesga qatnashish huquqiga ega bo'ldilar.

1192-yil — Minamoto Yoritomo imperator nomidan Yaponiyani boshqaruvchi harbiy qo'mondon — syogun unvonini oldi.

- 1192–1333-yillarda** — Yaponiyada Kamakura syogunligi mavjud bo‘lgan.
- 1194-yilda** — Xorazmshohlar davlati Saljuqiylar hukmronligi zaiflashganidan foydalanib, Eronni egalladi va uni Xorazmshohlar davlatiga qo‘shib oldi.
- 1194–1250-yillar** — Fridrix II Germaniya imperatori sifatida hukmronlik qilgan yillar.
- 1206-yil** — Qutbiddin Oyboq Dehli sultonligiga asos soldi.
- 1206–1526-yillar** — Dehli sultonligi mavjud bo‘lgan davr, uni G‘ulomlar, Xiljiylar, Tug‘luqlar, Sayyidlar hamda Lo‘diylar sulolalari boshqargan.
- 1206–1210-yillarda** — Qutbiddin Oyboq Dehli sultonligini boshqargan.
- 1211–1236-yillarda** — Shamsiddin Eltutmish Dehli sultonligini boshqargan.
- 1213-yil** — Salerno tibbiyot maktabi universitet maqomini olib, Yevropa tibbiyot markaziga aylangan.
- 1215-yilda** — Angliya qiroli Ioann “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ni imzolashga majbur bo‘ldi.
- 1220-yil** — Buxoro mo‘g‘ullar tomonidan bosib olingandan keyin buxorolik zodagon Umar Kamoliddin harbiy xizmatga olindi; keyinchalik uning avlodidan bo‘lgan Mahmud (Chjan Xe) Min imperatori Yongle davrida mashhur dengizchi bo‘ldi.
- 1225-yil** — Lissabon shahri Portugaliyaning poytaxtiga aylandi.
- 1227-yilda** — Chingizxon vafot etgach, uning vorislari ulug‘ xoqon boshlagan istiloni davom ettirdilar.
- 1227-yil** — uning vorislari bosqinchilik siyosatini davom ettirdilar.
- 1229-yil** — Bag‘dod xalifasi Shamsiddin Eltutmishni mustaqil hukmdor deb e‘tirof etdi.
- 1231-yil** — Anbuk qal‘asidagi hal qiluvchi jangda Koryo qo‘shinlari mo‘g‘ullardan mag‘lub bo‘ldi.
- 1236-yil** — Roziya Dehli sultonligi taxtiga o‘tqazildi.
- 1237-yilda** — Chingizxonning nabirasi Botuxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar rus yerlariga hujum boshladi; Ryazan, Vladimir-Suzdal, Polotsk-Minsk va Smolensk kabi hududlar birin-ketin bosib olindi.
- 1237–1242-yillarda** — Botuxon Rus va Sharqiy Yevropaga yurishlar olib borgan davr.
- 1238-yil** — arablar qo‘l ostida Granada amirligi tashkil topdi.
- 1238–1492-yillarda** — Granada Pireney yarimorolidagi so‘nggi islom davlati sifatida mavjud bo‘lgan davr.
- 1240-yil** — Novgorod-Pskov knyazligiga shved qo‘shinlari hujum qildi.
- 1240-yil** — Vengriya Botuxon boshliq mo‘g‘ullar tomonidan ishg‘ol qilindi.
- 1240-yil** — mo‘g‘ullar tomonidan Kiyev egallandi.
- 1240-yil aprel** — Roziya Dehli sultonligi taxtidan ag‘darildi.
- 1242-yil 5-aprel** — Chud ko‘li ustidagi “Muz ustidagi jang”da Aleksandr Nevskiy boshchiligidagi rus qo‘shini nimislar ustidan g‘alaba qozondi.
- 1248-yil** — Fridrix II Germaniya imperatori sifatida Papadan mag‘lubiyatga uchradi.
- 1250-yil** — Germaniya imperatori Fridrix II vafot etdi.
- 1250-yil** — Misrda Mamluklar Ayyubiylar sulolasini ag‘darib, o‘z davlatiga asos soldilar.
- 1252-yil** — Florensiya shahar-respublikasida oltin tanga zarb qilindi.
- 1254-yil** — Germaniyada Reyn savdo va sanoat ittifoqi tashkil topdi.

- 1254–1273-yillar** — Germaniyada imperator saylanmagan davr.
- 1255–1266-yillarda** — Berkaxon Oltin O‘rdani boshqargan davr.
- 1256-yil** — Huloku Eronni bosib olib, Hulokuiylar davlatiga asos soldi.
- 1260-yil** — Misr mamluklari Sayfiddin Qutuz boshchiligida mo‘g‘ullar bosqinini to‘xtatadilar.
- 1263-yilda** — Daniil Aleksandrovich Moskva knyazligiga asos soldi.
- 1263-yilda** — Mayyapan shahriga asos solinib, u keyinchalik Yukatanning asosiy markaziga aylangan.
- 1265-yil** — Simon de Monfor Angliyada baronlar, ruhoniylar, ritsarlar va shaharliklar vakillari ishtirok etgan majlis (parlament) ni chaqirdi.
- 1266–1282-yillarda** — Mangu Temur Oltin O‘rdani boshqargan davr.
- 1269-yil** — Mangu Temur Oltin O‘rdani Mo‘g‘ullar imperiyasidan mustaqil deb e‘lon qildi.
- 1271–1295-yillar** — Marko Poloning Osiyo mamlakatlariga sayohatlari davri.
- 1273-yil** — Germaniya knyazlari Rudolf Gabsburgni imperator qilib sayladilar.
- 1274-yilda** — Xubilay Yaponiya orollarini zabt etish uchun katta dengiz floti va qo‘shin yuboradi.
- 1279-yilda** — Xubilay Xitoyni to‘liq egallagan.
- 1279–1368-yillarda** — Xitoyda Yuan sulolasi hukmronlik qildi.
- 1279–1415-yillarda** — Portugaliyada monarxiya mustahkamlandi. Qirol Dinish davrida Portugaliya floti va Koimbra universiteti rivojlantirildi;
- 1281-yil** — Mo‘g‘ullar Yaponiyaga ulkan qo‘shin bilan bostirib kirdilar.
- 1282-yil** — Sitsiliyaliklar oroldagi ajnabiy hukmronligiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardilar.
- 1284-yil** — Venetsiya respublikasi tomonidan oltin dukatlar chiqarila boshlandi.
- 1285–1314-yillarda** — Filipp IV Fransiya qiroli bo‘lgan davr, u mamlakatni birlashtirish va markazlashtirish siyosatini olib borgan.
- 1290-yil** — Jaloliddin Feruzshoh Dehli sultonligida hokimiyatni egallab, Xiljiylar sulolasiga asos soldi.
- 1291-yilda** — Usmonning Vizantiyaga qarshi dastlabki muvaffaqiyatli yurishida Melangiya zabt etiladi.
- 1294–1303-yillarda** — Bonifatsiy VIII Rim papasi bo‘lib turgan davr.
- 1295-yil** — Angliyada parlament doimiy chaqirila boshlandi.
- 1295-yil** — Hulokuiylar hukmdori G‘ozonxon qurultoyda islomni davlat dini deb e‘lon qildi.
- 1295–1304-yillar** — G‘ozonxon Hulokuiylar davlatini boshqargan davr.
- 1297-yil** — Angliya parlamentiga soliqlarni tasdiqlash huquqi berildi.
- 1298-yil** — Genualiklar Venetsiya flotini mag‘lub etishdi; to‘qnashuvda venetsiyalik doj va Marko Polo asir tushib qoldi.
- 1299-yil** — Usmon o‘ziga tegishli beylikni mustaqil deb e‘lon qilib, Usmoniylar davlatiga asos soldi.
- 1299–1326-yillar** — Usmon I Usmoniylar davlatini boshqargan yillar.
- 1301-yil** — Vengriyada Arpadlar sulolasi barham topdi.

1302-yil — Fransiyada ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklar vakillaridan iborat General shtatlar chaqirildi.

1302–1789-yillar — Fransiyada General shtatlar tabaqaviy vakillik muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatgan yillar.

1307-yil — Yuan sulolasi davrida Suy Yangchyuy boshchiligidagi Xitoy savdo kemalari Fors ko'rfaziga yuboriladi.

1308-yil — Vengriyada Anjuylar sulolasi vakillari taxtni egalladilar.

1309–1377-yillar — Rim papalarining Avinyon tutqunligi davri.

1309–1424-yillarda — Venetsiyadagi dojlar saroyi hozirgi ko'rinishga keltirilgan.

1312–1337-yillar — Mansa Muso Mali imperiyasini boshqargan davr.

1312–1342-yillar — O'zbekxon Oltin O'rdani boshqargan davr.

1314-yil — Fransiya qiroli Filipp IV vafot etgan.

1314-yil — Oltin O'rda hukmdori O'zbekxon islomni qabul qilib, uni davlat dini deb e'lon qildi.

1314–1358-yillar (Muboriziddin Muhammadning hukmronlik yillari) — Muzaffariylar davlatiga mo'g'ullarning Yazd shahridagi noibi Muboriziddin Muhammad ibn Muzaffar asos soldi; poytaxt Sheroz bo'ldi. U Kirmon, Fors va Isfahon viloyatlarini qo'shib olib, Janubiy Eronda o'z hukmronligini o'rnatdi.

1324-yilda — Mansa Muso haj ziyoratiga borayotib katta miqdorda oltin hadya qiladi.

1325-yil — Atsteklar Tenochtitlan shahriga asos soladilar.

1325–1340-yillar — Ivan Kalita Moskva knyazligini boshqargan davr.

1325–1351-yillar — Muhammad Tug'luq Dehli sultonligini boshqargan davr.

1327-yil — Moskva knyazi Ivan Kalita Oltin O'rda hukmdoridan rus yerlarida soliq yig'ish huquqini oldi.

1327-yil — Usmoniylar hukmdori O'rxon davrida poytaxtga aylantirilgan Bursa shahrida birinchi marta kumush tanga zarb qilinadi.

1330-yil — Florensiyada 90 ming aholi istiqomat qilgan; aholining asosiy mashg'ulotlaridan biri movut ishlab chiqarish edi.

1331-yil — Yuqori Dunay bo'yidagi 90 ta shaharni birlashtirgan Shvabiya ittifoqi tashkil topdi.

1331–1355-yillar — Serbiya qiroli Stefan Dushan hukmronlik davri.

1333-yilda — Yaponiyada Kamakura syogunligi tugatildi.

1334-yil — Yuan sulolasi davrida Van Dayuan rahbarligidagi Xitoy savdo kemalari Arabiston yarimoroliga yuborilgan.

1337-yil — Angliyaning Fransiya hujumi bilan Yuz yillik urush rasman boshlandi.

1337-yil — Mali hukmdori Mansa Muso vafot etdi.

1337–1453-yillar — Angliya va Fransiya o'rtasida Yuz yillik urush bo'lib o'tgan yillar.

1338-yil — Yaponiyada Asikaga syogun unvonini olib, Kioto syogunligiga asos soladi.

1338–1573-yillar — Yaponiyada Asikaga syogunligi hukmronlik qilgan davr.

1340-yil — Angliya Fransiya qarshi dengizdagi jangda g'alaba qozonib, dengizda ustunlikni qo'lga kiritadi.

1340-yilda — Hulokuiylar davlati yemirilgach, shayx Hasan Buzurg o'zini sulton deb e'lon qilib, Jaloyiriylar davlatiga asos soldi.

1342–1357-yillar — Jonibekxon Oltin O‘rdani boshqargan davr.

1343-yil — Angliya parlamenti ikki palataga bo‘linadi.

1346-yil — Kresi yaqinidagi jangda fransuz qo‘shini inglizlardan mag‘lub bo‘ladi.

1347-yil — Germaniyada Lyuksemburglar sulolasi hokimiyatga keldi.

1347-yil — Ingliz qiroli Eduard III Kale portini bosib oladi.

1347-yil oktabr — Qora o‘lat Qora dengizdagi Kaffa shahridan Sitsiliya oroliga olib kelinadi.

1347–1351-yillar — Qora o‘lat Yevropada keng tarqalgan davr.

1350-yil oxiri — Vabo Yevropaning deyarli barcha hududlariga yoyildi.

1351-yil — Xenan va Shandun viloyatlarida “Qizil peshonabog‘lilar” qo‘zg‘oloni boshlandi.

1351–1368-yillar — Xitoyda Yuan sulolasiga qarshi “Qizil peshonabog‘lilar” qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tgan davr.

1352–1354-yillarda — Turkular Bolqonda dastlabki yurishlarini boshlab, uning bir qismini egalladilar va Yevropa hududida Rumeliya viloyatini tashkil etdilar.

1353-yilgacha — Xurosonning sharqiy qismida elxonlar hokimiyati saqlanib qolgan.

1356-yil — Koryoda mo‘g‘ullar tarafdori bo‘lgan amaldorlar va harbiylar chetlatildi.

1356-yil — Puatye yaqinidagi jangda fransuzlar inglizlardan mag‘lub bo‘ldilar.

1356–1374-yillar — Jaloyiriylar davlati sultoni **Uvays I** ning hukmronlik davri.

1357-yil — Fransiya General shtatlari o‘z vakolatlarini kengaytirishni talab qildi.

1358-yil — Fransiyaning Bove viloyatida dehqonlarning Jakeriya qo‘zg‘oloni boshlandi.

1360-yil — Fransiya qiroli Karl V inglizlar bilan sulh imzoladi.

1362-yil — Adrianopol shahri Usmoniylar tomonidan egallanib, Edirna deb ataldi va poytaxtga aylantirildi.

1362–1389-yillar — Murod I ning Usmoniylar davlatini boshqargan davri.

1365-yil — Sulton Murod I tomonidan yanicharlar qo‘shini tuzildi.

1368-yil — Koryo mo‘g‘ullar qaramligidan xalos bo‘ldi.

1368-yil — Xitoyda Yuan sulolasi ag‘darilib, Min sulolasi hukmronligi boshlandi.

1368–1644-yillar — Xitoyda Min sulolasi hukmronlik qilgan davr.

1369-yilda — Qirol Karl V davrida Fransiya qo‘shinlari inglizlarni mag‘lub eta boshladi.

1370-yilda — Ganza ittifoqi Daniyaga jiddiy zarba berdi, Daniya qiroli ittifoq ishlariga aralashishdan voz kechdi.

1370-yilda — Xitoyda Min sulolasi davrida soliqlar miqdorini aniqlashtirish maqsadida aholi ro‘yxatdan o‘tkazildi.

1371-yil — Yan Gus Chexiyaning Gusines qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi.

1376-yil — Atsteklar Tenochtitlan shahrining birinchi tlatoanini (oliy hukmdorini) saylab, dastlabki hukmron sulolasiga asos soldilar.

1377-yil — Angliya qiroli Richard II hukmronligi davrida ingliz parlamenti Angliya tarixida birinchi marotaba jon solig‘ini joriy qildi.

1377-yil — papa Grigoriy XI Avinyondan Rimga ko‘chib keldi.

1377–1446-yillar — Florensiyalik Filippo Brunelleski ning yashagan davri; u Uygʻonish davri arxitekturasining asoschisi boʻlib, Santa Mariya soborining ulkan gumbazi va Florensiya Bolalar uyidagi galereyalarni yaratgan.

1378-yilda — Florensiyada yirik qoʻzgʻolon yuz berdi.

1378-yilda — Papa Grigoriy XI Rimda vafot etadi.

1380-yil — Oltin Oʻrda va Moskva knyazligi oʻrtasidagi jang Don daryosi daryosi boʻyidagi Kulikovo maydonida boʻlib oʻtdi.

1380-yil — Angliya Richard II davrida jon soligʻi 3 barobarga oshiriladi.

1380-yil — Venetsiya respublikasi Genuya flotini tamomila magʻlub qiladi.

1380–1395-yillar — Toʻxtamishxon Oltin Oʻrdani boshqargan davri.

1380–1422-yillar — Fransiya qiroli Karl VI ning hukmronlik davri; Yuz yillik urushning eng qizgʻin davrida u Amir Temur bilan oliy darajada diplomatik yozishmalar olib boradi.

1381-yil — Angliya qiroli Richard II hukmronligi davrida Uot Tayler boshchiligidagi dehqonlar qoʻzgʻoloni boshlanadi.

1381-yil — Jon Boll qamoqdan ozod qilindi va u ham Uot Tayler qoʻzgʻoloni rahbarlaridan biriga aylandi.

1381-yil — Amir Temur Sabzavorni egallab, Sarbadorlar davlatiga barham berdi.

1382-yil — Oltin Oʻrdaning yangi xoni Toʻxtamishxon rus yerlariga hujum qiladi va Moskvani bosib oladi.

1383-yil — Moskva knyazligi Vladimir knyazligi bilan birlashdi.

1387-yil — Qora qoʻyunlilar yoʻlboshchisi Qora Yusuf Tabrizni egallab, mustaqil harakat qila boshladi.

1387–1388-yillar — Min sulolasi davrida moʻgʻullarning asosiy harbiy kuchlari yanchib tashlanib, Yuan davlati butunlay tugatildi va Xitoyda uning qayta tiklanishi xavfi yoʻqoldi.

1387–1393-yillarda — Amir Temur Janubiy Eronni egallab, Muzaffariylar davlatiga barham beradi.

1389-yil — Amir Temur va Toʻxtamishxon oʻrtasida jang boʻldi.

1389-yil — Serblar va Usmoniy turklar oʻrtasida Kosovo maydonida hal qiluvchi jang boʻlib oʻtdi.

1389-yil — Kosovo maydonidagi jangda turk sultoni Murod I serb askari Milosh Obilich tomonidan oʻldirildi.

1389–1402-yillar — Boyazid I ning Usmoniylar davlatini boshqargan davri.

1391-yil — Amir Temur va Toʻxtamishxon oʻrtasida Qunduzcha jangi boʻldi.

1392-yil — Li Son Ge Xitoy bosqinlariga qarshi kurash boshlab, oʻz qoʻshini bilan poytaxtga kirib kelib, davlat toʻntarishini amalga oshirdi, Li Son Ge Koryoning soʻnggi hukmdorini taxtdan agʻdarib, hokimiyatni egalladi va Li sulolasiga asos soldi.

1395-yil — Amir Temur Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi boʻyidagi jangda Toʻxtamishxon ustidan hal qiluvchi gʻalabaga erishdi.

1396-yil — Ikkinchi Bolgariya podshohlighi tugatilib, mamlakat Usmoniylar davlatiga qaram boʻldi.

1397-yil — Yaponiyadagi Oltin pavilyon syogun Asikaga Yoshimitsu tomonidan qurildi.

1398-yil — Amir Temur Hindistonga yurish qilib, Dehlini zabt etdi.

1398-yil — Yan Gus Praga universiteti professori bo'ldi.

1399-yil — Angliya taxtiga Lankasterlar sulolasi keldi.

1400-yil — Yan Gus ruhoni bo'lib, va'zgo'ylik faoliyatini boshladi.

1400–1418-yillar — Chosonning uchinchi hukmdori Taejong ning hukmronlik davri.

1401-yil — Smolensk knyazlari Litva knyazidan hokimiyatni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar.

1401–1428-yillar — Florensiyalik rassom Tommazo Mazachcho yashagan davri; u ilk Uyg'onish davrining birinchi rassomi hisoblanadi va "Statir mo'jizasi" kabi mashhur asarlarni yaratdi.

1402-yil iyul — Amir Temur va Usmoniylar sultoni Boyazid I o'rtasida Anqara jangi bo'lib, Boyazid I mag'lubiyatga uchrab, asir olindi.

1402-yil — Yan Gus chexlar orasida birinchi bo'lib Praga universiteti rektori bo'ldi.

1402–1424-yillar — imperator Yongle Xitoyni boshqargan davr.

1402-yil — Chosonda qirol Taejong davrida oddiy aholining amaldorlar hamda zodagonlarga qarshi shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun "maxsus qabulxona" tuzilib, saroy tashqarisiga "katta do'mbira" o'rnatilgan.

1402-yil — Kastiliya qirol Genrix III de Trastamara tomonidan Payo Sotomayor va Ernan Sanches boshchiligidagi elchilar Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuborildi.

1403-yil — Angliya qirol Genrix IV Amir Temurga elchi orqali maktub yubordi; savdo aloqalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

1403-yil — Fransiya qirol Karl VI Amir Temurga maktub yo'lladi; ikki hukmdor o'rtasida diplomatik yozishmalar amalga oshirildi.

1403-yil — Parijda bo'lgan Ioann Amir Temurning muhri bosilgan va zarhal harflar bilan bitilgan maktubini Fransiya qirol Karl VI ga topshiradi.

1403-yil — Kastiliya qirol Genrix III Amir Temur huzuriga Rui Gonsales de Klavixo boshchiligida ikkinchi marotaba o'z elchisini yo'llaydi.

1403-yil may — madridlik boy oilani vakili Rui Gonsales de Klavixo Kadisdan suzib o'tib, Rodos, Konstantinopol va Trapezund orqali **1404-yil avgust**da Samarqandga yetib boradi.

1404-yil — Litva knyazi Smolenskni egallab, uni Litvaga qo'shib oldi.

1404-yil avgust — Kastiliya qirol Genrix III yuborgan Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi elchilik Samarqandga yetib keldi.

1404-yil oxiri — Amir Temur Xitoyga yurishni boshladi.

1405-yil — Amir Temur Xitoy yurishi yo'lida vafot etdi.

1405-yil — Klavixo ning Amir Temur huzuridagi elchilik missiyasi yakunlandi.

1405–1433-yillarda — Chjan Xe boshchiligidagi 70 ta amaldor va 30 ming jangchidan iborat Xitoy dengiz ekspeditsiyalari amalga oshirildi.

1406-yil — Hozirgi Belgiya hududida birinchi birja tashkil etildi.

1406-yil mart — Rui Gonsales de Klavixo Kastiliyaga qaytib ketadi va qirol Genrix III de Trastamaraga sayohati haqida ma'lumotlar jamlangan hisobotini topshiradi.

1407-yil — Italiyada Yevropadagi dastlabki zamonaviy ko‘rinishdagi bankka asos solinadi.

1407-yil — keksa Gonsales de Klavixo davlat ishlaridan nafaqaga chiqadi.

1408-yil — Imperator Yongle davrida Xitoy sivilizatsiyasining ulkan to‘plami hisoblangan “Yongle ensiklopediyasi” yoziladi.

1409-yil — cherkov yakka papalikni ta‘minlash uchun Italiyaning Piza shahrida katta yig‘in chaqiradi.

1410-yil — Qora qo‘yunlilar hukmdori Qora Yusuf Tabriz va Bag‘dodni egallab, Qora qo‘yunlilar davlatiga asos soladi.

1412-yil — Rui Gonsales de Klavixo vafot etdi va avliyo Fransisko cherkoviga dafn etiladi.

1413-yil — Choson qiroli Taejong davrida aholini ro‘yxatga olish tizimi joriy qilinib, shaxsni tasdiqlovchi hujjat haqida qonun chiqariladi.

1413–1421-yillar — Mehmed I ning Usmoniylar davlatini boshqargan davri.

1415-yil — Yan Gus Konstansada nohaq qamoqqa olinib, gulxanda yoqildi;

1415-yil — Azenkur jangida fransuzlar inglizlardan mag‘lub bo‘ldilar.

1418-yil — Cherkov yig‘ilishida Martin V papa etib saylanib, katolik cherkovidagi Buyuk bo‘linishga barham beriladi.

1418–1450-yillar — Choson qirolligida Buyuk Sejong ning hukmronlik davri.

1419-yil — Pragada Yan Gus tarafdorlarini qo‘zg‘oloni boshlandi.

1419-yil — Chexiya Germaniya imperiyasidan butunlay ajralib, mustaqil davlatga aylandi.

1420-yil — Fransiya uchun og‘ir shartlarni belgilagan Trua shartnomasi imzolandi.

1420–1500-yillar — Italiyada Ilk Uyg‘onish bosqichi davri.

1421-yil — Beypin Min imperiyasining poytaxtiga aylanib, Beyszin (Pekin) deb atala boshlangan.

1422–1461-yillar — Karl VII Fransiya qiroli bo‘lib turgan davr.

1428-yil — inglizlar Fransiyaning muhim strategik shahri Orleanni qamal qilishga kirishdilar.

1429-yil — Atsteklar mustaqillikka erishib, Tenochtitlan Meksika vodiysidagi eng qudratli shaharga aylandi.

1429-yil — Orlean shahri qamaldan ozod qilinib, Yuz yillik urushda tub burilish yuz berdi.

1430-yil — Janna d’Ark Kompen qal’asi uchun janglarda burgundlarga asir tushadi.

1431-yil 30-may — Janna d’Ark Ruan shahrida gulxanda yoqildi.

1434-yil — Chexiyada Guschilar harakati bostirildi.

1435-yil — Shohrux Mirzo Qora qo‘yunlilar qo‘shinini mag‘lub etib, ularni tobe qiladi.

1435–1488-yillar — Ilk Uyg‘onish davri rassom va haykaltaroshlaridan biri Andrea del Verrokkio yashagan davri.

1436-yil — Fransiya poytaxti inglizlardan ozod qilindi, qirol Karl VII Parijga kirib keldi.

1437-yil — Germaniyada Lyuksemburglar hukmronligi barham topdi.

- 1437-yil** — Germaniyada Gabsburglar sulolasi vakillari taxtga o'tirdi, Gabsburglar 369 yil, ya'ni 1806-yil (Napoleon I davri)ga qadar hukmronlik qildilar.
- 1445-yil** — Iogann Gutenberg bosma mashina va harf quyish (kitob bosish) dastgohini ixtiro qildi.
- 1450-yil** — Choson qirolligida Buyuk Sejong hukmronligi yakunlandi.
- 1451-yil** — afg'on urug'laridan birining boshlig'i Bahlul Lo'diy Dehlini egallab, o'zini sulton deb e'lon qildi.
- 1451–1481-yillar** — Mehmed II Usmoniylar davlatini boshqargan davr.
- 1453-yil** — Vizantiya imperiyasi quladi.
- 1453-yil** — Yuz yillik urush yakunlandi.
- 1453-yil 29-may** — Usmoniylar sultoni Mehmed II Fotih Konstantinopolni ikki oylik qamaldan so'ng egalladi.
- 1453–1478-yillar** — Oq qo'yunlilardan Uzun Hasan ning hukmronlik davri.
- 1455–1485-yillar** — Angliyada "Oq va qizil gullar urushi" bo'lib o'tgan davr.
- 1456-yil** — Janna d'Ark ustidan chiqarilgan sud hukmi noqonuniy deb topilib, u oqlandi.
- 1459-yil** — Serbiyaning so'nggi hududi Usmoniylar tomonidan ishg'ol etildi.
- 1461–1483-yillar** — Fransiya qiroli Lyudovik XI ning hukmronlik davri.
- 1467–1477-yillar** — Yaponiyada Asikagalar xonadoni syogunlarining taxt uchun kurashi "Onin urushi" bo'lib o'tgan davr.
- 1468-yil** — Oq qo'yunlilardan Uzun Hasan Qora qo'yunlilarni mag'lub etib, ularning hududlarini egalladi.
- 1469-yil** — Temuriylar bilan yuz bergan jangda Oq qo'yunlilardan Uzun Hasan g'alaba qozonib, temuriy sulton Abu Said halok bo'ladi.
- 1469-yil** — aragonlik shahzoda Ferdinand hamda kastiliyalik malika Izabellaning turmush qurishi Ispaniyani birlashtirish yo'lida katta qadam bo'ldi.
- 1469–1494-yillar** — Chosonning to'qqizinchi qiroli **Seongjong** ning hukmronlik yillari.
- 1471–1475-yillar** — Fransiya qiroli Lyudovik XI va Burgundiya gersogi Karl Jasur o'rtasida Frank-Burgund urushlari bo'lib o'tgan davr.
- 1478-yil** — Moskva knyazi Ivan III ning Novgorodga yurishi natijasida Novgorod mustaqilligi tugatildi, veche siyosiy muassasa sifatida yo'q qilindi va veche qo'ng'irog'i Moskvaga olib ketildi.
- 1480-yil** — Oltin O'rdaning Moskva knyazi Ivan III ni bo'ysundirish uchun qilgan urinishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.
- 1480-yil** — Moskva knyazi Ivan III davrida ruslar Oltin O'rdaga soliq to'lashni butunlay to'xtatdi.
- 1480-yil** — rus yerlarida mo'g'ullar hukmronligi nihoyasiga yetdi.
- 1485-yil** — Bosvort shahri yaqinida bo'lib o'tgan jangda Yorklar mag'lub etildi va Genrix VII Tyudor Angliya qiroli bo'ldi.
- 1489–1517-yillar** — Iskandar Lo'diy Dehli sultonligini boshqargan davr.
- 1492-yil** — Granada amirligi qulagach, uning hududi Ispaniyaga qo'shib olindi.
- 1498-yil** — Portugaliyalik dengizchi Vasko da Gama Hindistonga dengiz yo'lini ochdi.

- 1500-yil** — Portugaliyalik dengizchi Pedro Kabral Braziliyani kashf etdi.
- 1500–1527-yillar** — Italiyada Rivojlangan Uygʻonish bosqichi davri.
- 1502-yil** — Qrim xoni Mengli Garay Oltin Oʻrda qoʻshinini uzil-kesil magʻlubiyatga uchratdi va davlat parchalanib ketdi.
- 1512-yil** — Navarra aragonlik Ferdinand tomonidan bosib olinib, Ispaniya tarkibiga kiritildi.
- 1514-yil** — Smolensk Rus-Litva urushidan keyin Rossiya tarkibiga kirdi.
- 1517-yil** — Usmoniy sultonlari xalifa sifatida musulmon dunyosida siyosiy-diniy mavqega ega boʻla boshladilar.
- 1517–1924-yillar** — Usmoniy sultonlari **1517-yildan** boshlab xalifa sifatida musulmon dunyosida siyosiy-diniy mavqega ega boʻldilar; **1924-yilda** Usmoniylar xalifaligi tugatildi.
- 1521-yil** — Ernan Kortes boshchiligidagi ispan konkistadorlari Tenochtitlanni egallab, Atsteklar davlatini tugatdilar.
- 1526-yil 21-aprel** — Zahiriddin Muhammad Bobur Panipat jangida Ibrohim Loʻdiy qoʻshinini tor-mor etib, Hindistonni egalladi va Dehli sultonligi parchalanib ketdi.
- 1528-yil** — Konkistadorlar shimoliy Yukatanni egallashga kirishdilar.
- 1530–1620-yillar** — Yevropada Soʻnggi Uygʻonish bosqichi davri.
- 1532-yil** — Konkistadorlar Inkalar qoʻshinini tor-mor etib, Oliy Inkani asir oldilar.
- 1547-yil** — Moskva knyazi Ivan IV podshoh unvonini oldi.
- 1558-yilgacha** — Angliya davlati Fransiya hududida faqat Kale port shahrinagina qoʻlida saqlab qoladi.
- 1572-yil** — Inklarning soʻnggi hukmdori taxtdan agʻdarilib, Inkalar davlati tugatildi.
- 1582-yil** — Gonsales de Klavixoning “Esdaliklar” asari Sevilyada “Buyuk Temurning hayoti va faoliyati” nomi bilan chop etildi.
- 1697-yil** — Mayyalar davlati ispanlar tomonidan toʻliq boʻysundirildi.
- 1797-yil** — Genuya Respublikasi tugatildi.
- 1806-yil** — Germaniyada Gabsburglarning hukmronligi yakunlandi.

ASRLAR

- Miloddan avvalgi III asrda** — Parij shahriga keltlarning parizi qabilasi tomonidan Lyutetsiya hududida asos solingan, qirol Gugo Kapet davridan boshlab Parij shahri siyosiy markaz – poytaxt maqomini oldi.
- VIII asrda** — Gʻarbiy Sudanda Gana davlati vujudga keldi.
- VIII asrda** — Niger daryosining yuqori oqimida Mali davlati vujudga keldi.
- VIII–XV asrlar** — Rekonkista jarayoni boʻlib oʻtdi, Pireney yarimorolining arablardan qaytarib olinishi jarayoni tarixga Rekonkista nomi bilan kirgan.
- VIII–XVIII asrlarda** — Doj Venetsiya respublikasining saylangan rahbari boʻlgan.
- IX asrda** — Italiyada shifokorlar tayyorlaydigan birinchi Salerno tibbiyot maktabi paydo boʻldi.
- IX asrdan** — Venetsiyadagi dojlar saroyi qurilishi boshlandi.

IX asr oxirida — Janubi-sharqiy Yevropada Vengriya davlati tashkil topdi.

X asrdan — Ispaniyada arab xalifaligidan ajralib chiqqan ilk mustaqil amirlik Qurdoba amirligi deb atala boshlangan.

X asrdan — Vengerlar dehqonchilikni ham o‘zlashtirib oldilar.

X–XI asrlarda — Fransiyada dehqonchilik, ishlab chiqarish, savdo-sotiq va hunarmandchilik jadal rivojlandi.

X–XII asrlarda — Yevropada xalqaro savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan ulgurji hamda chakana savdoni amalga oshirish uchun yarmarkalar vujudga keldi.

X–XIII asrlarda — Yevropada cherkovlar roman uslubida qurilgan.

X–XVI asrlarda — Veche slavyan davlatlarida xalq yig‘ini vazifasini bajargan, veche qadimgi slavyan tilidan olingan bo‘lib, kengash ma’nosini bildiradi.

XI asrda — Genuya davlatiga asos solindi.

XI asrdan — Ispaniyaning janubida joylashgan Granada arablar qo‘li ostiga o‘tgan.

XI asrdan — Hunarmandlar o‘zlarining gildiyalari (hunarmand yoki savdogarlar uyushmasi)ni tashkil qila boshladilar.

XI asr o‘rtalaridan — Saljuqiy turklar Xuroson va Eronda o‘z hukmronligini o‘rnatdilar.

XI asr oxirida — Kanada milliy ozodlik harakati boshlanib, marokashliklarni mamlakatdan quvib chiqaradilar.

XII asrda — Pireney yarimorolida Kastiliya, Navarra, Aragon va Portugaliya davlatlari yuzaga keldi.

XII asrda — Serbiya siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lmagan bo‘lsa-da, yirik davlatga aylandi.

XII asrda — Yaponiyada imperator – mikado hokimiyati o‘rnatildi.

XII asrda — Afrika janubidagi Zimbabve va Limpopo daryolari bo‘yida Monomotapa davlati mavjud bo‘lgan.

XII asrda — Italiyaning Salerno tibbiyot maktabida “Kasalliklarni davolash to‘g‘risida” risolasi yozildi.

XII asrda — Ispaniyada “Sid haqida qo‘shiq” o‘rta asr qahramonlik eposi paydo bo‘ldi.

XII asrda — Germaniyada “Nibelunglar qo‘shig‘i” o‘rta asr qahramonlik eposi paydo bo‘ldi.

XII asrda — Yevropa me’morchiligida Gotika deb atalgan yangi me’moriy uslub paydo bo‘ldi.

XII asrdan — Sharq allomalari Abu Ali ibn Sino va Abu Bakr ar-Roziylarning asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa tibbiyotida foydalanila boshlandi.

XII asrning birinchi yarmida — Kiyev Rusi 10 dan ortiq mustaqil knyazliklarga bo‘linib ketdi.

XII asrning ikkinchi yarmida — Salibchilarga qarshi kurash boshlagan Salohiddin Ayyubiy Ayyubiylar sulolasiga asos soladi.

XII–XIII asrlarda — Dehli sultonligining barcha hududlarida musulmonlar hokimiyati uzil-kesil o‘rnatildi.

XII–XIII asrlarda — Yevropa madaniyatida dunyoviy omillarning shakllanishi va rivojlanishida shahar adabiyoti katta rol o‘ynadi.

XII–XIV asrlarda — Shampan yarmarkasi faoliyat yuritgan.

XII–XIV asrlarda — Fransiyada “Tulki haqida roman” satirik doston paydo bo‘ldi.

XII–XIV asrlarda — Angliyada Robin Gud haqidagi qahramonlik qo‘shiqlari va balladalar to‘qilgan.

XII–XV asrlarda — Venetsiya, Genuya, Florensiya, Shampan, Bryugge va Londondagi yarmarkalarda dastlabki birjalar paydo bo‘la boshlagan.

XIII asrda — Kastiliyada qirol Alfonso X “Huquqning yeti bo‘limi” deb nomlangan qonunlar to‘plamini yaratdi.

XIII asrda — Portugaliya qirollari o‘z chegaralarini kengaytirib, bugungi kungacha deyarli o‘zgarmagan hududga ega bo‘lishdi.

XIII asrda — Vengriya butunlay feodal davlatga aylandi, bu davrda Dunay va Tissa daryolari bo‘yida venger zodagonlari, ruhoniylar va ritsarlarining yirik mulklari mavjud edi.

XIII asrda — Vengriya davlati gullab-yashnadi, hududi Adriatika sohillarigacha borib yetdi.

XIII asrda — Venetsiya respublikasi Italiyadagi ulkan dengiz davlati mavqeyiga erishgan edi.

XIII asrda — Mali Sundiata Keyta davrida yuksala boshlaydi.

XIII asrda — Mayyalar davlatini cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lgan hokim boshqarib, uning eng yaqin yordamchisi va bosh maslahatchisi Oliy kohin hisoblangan.

XIII asrda — Inklar kuchayib, qabilalar ittifoqiga bosh bo‘ladi hamda hukmron qabila sifatida tan olinadi.

XIII asrda — Yevropada boylar va kambag‘allar kiyadigan kiyimlar o‘rtasida katta farq bor edi.

XIII asrda — Yevropada deyarli har bir hunarmandchilikka ixtisoslashgan guruhlarining (ko‘nchi, novvoy, shoyi, ziravorlar yoki jun sotuvchi va hokazolar) savdogarlarniki kabi alohida gildiyalari mavjud edi.

XIII asrda — Chexiya davlati Bogemiya deb ham atalgan va Markaziy Yevropadagi muhim mamlakatlardan biri bo‘lgan.

XIII asrda — mo‘g‘ullarning Sharqdagi qator mamlakatlarga keng miqyosdagi harbiy yurishlari Osiyo mintaqasida ulkan iqtisodiy inqirozni yuzaga keltirdi.

XIII asrda — G‘arbiy Yevropada kishilar tasavvurlarining kengayishi asosan keng ma’noda rivojlana boshladi.

XIII asrda — Germaniyada yaratilgan “Pop Amis” nomli novellada har qanday vaziyatdan unumli foydalanadigan aqlli ruhoniyni qiyofasida jamiyat muammolari ko‘rsatib beriladi.

XIII asrda — Yevropa me’morchiligida Gotika uslubi mukammallikka erishdi.

XIII asrda — Birinchi g‘ishtli gotika ibodatxonasi Lyubekdagi cherkovda bo‘lgan.

XIII asrda — Nosiriddin at-Tusiy boshchiligidagi astronomiya maktabi vakillari Qutb Sheroziy, Muayyad al-Urdiy, Muhammad ash-Shotirlar Ptolemey nazariyasini inkor etdi.

XIII asrda — Kiyevda knyaz va zodagonlar o‘rtasidagi nizolar o‘lkani siyosiy jihatdan zaiflashtirdi.

XIII asrda — Dehlida Qutb minor qurilgan.

XIII asrda — Ko'nyoda Sulton Xon karvonsaroyi qurilgan.

XIII asrda — Halabda Al-Firdavs madrasasi qurilgan.

XIII asrda — Shansida Yunlegun monastiri qurilgan.

XIII asrda — Pekinda Oq pagoda qurilgan.

XIII asrda — Malida Mansa Muso ta'limni rivojlantirish va islom dinini keng yoyish orqali madaniy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqqan.

XIII asrda — Italiya shimolidagi shahar-respublikalarda dehqonlarning ozod bo'lishi yuz berdi.

XIII asr boshlarida — Osiyoda Chingizxon boshchiligida qudratli Mo'g'ul davlati tashkil topdi.

XIII asr boshlarida — Koreyaga mo'g'ullarning tinimsiz hujumlari boshlandi.

XIII asr boshlarida — Fransiyaning shimolidagi Kusi qal'asi qurildi, uning balandligi 64 m, kengligi 31 m, devorlarning qalinligi 7 m ga yetgan.

XIII asrning 40-yillari boshida — Botuxon Volga bulg'orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim, G'arbiy Sibir hududlarini o'z ichiga olgan Oltin O'rda davlatiga asos soladi.

XIII asrning 50-yillarida — Xuroson, Seyiston, Mozandaron, Fors Irog'i(Iroqi Ajam) va Ozarbayjon mo'g'ullar qo'liga o'tib, faqatgina Eronning janubi va janubig'arbidagi bir nechta mulklargina o'z mustaqilligini saqlab qoladi.

XIII asr o'rtalarida — Foma Akvinskiy Arastu falsafasi va xristianlik ta'limotini tadqiq qilib, ilohiyot asoslarini mustahkamladi.

XIII asrning o'rtalarida — Smolensk o'lkasi zaiflashdi.

XIII asr o'rtalarida — Navarrani fransuzlar egallagani uchun bu yerda ularning ta'siri kuchli bo'lgan.

XIII asr oxirida — Mali davlati Gaoni bosib olgach, songaylar uzoq vaqt Mali qirollariga xizmat qildilar.

XIII asr oxirida — Dehli sultonligi o'z qudratining cho'qqisiga chiqdi.

XIII asrning so'nggi choragida — Bolgariyada dehqonlarning tashqi kuchlar, zodagonlar va podshoh hokimiyatiga qarshi harakati bo'lib o'tdi.

XIII–XIV asrlarda — Bolgariyada aholi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul edi.

XIII–XIV asrlarda — Polshada dehqonlarining katta qismi shaxsiy erkinliklariga ega edi, ammo yirik zodagon pan – qioldan olgan yorlig'iga ko'ra erkin dehqonni sud qilish huquqiga ega edi.

XIII–XIV asrlar — Polshada yirik yer egalari va zodagonlarning hukmronlik davri bo'ldi.

XIII–XIV asrlarda — Yevropada yirik yarmarka va savdo markazlari mavjud edi.

XIII–XIV asrlarda — Yaponiyaning g'arbida joylashgan Suruga, Xakata va Osaka shaharlarida yirik portlar paydo bo'lib, Xitoy, Koreya bilan savdo munosabatlarini yanada rivojlantirdi.

XIII–XIV asrlarda — Angliyada toifaviy monarxiya sifatida markazlashgan davlat qaror topdi.

XIII–XIV asrlarda — Sinyoriya Italiya shahar-davlatlarida hokimiyat boshqaruvi tizimi va idorasi bo'lgan.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrda — Angliyada shahar va qishloqlar qayta rivojlana boshladi.

XIII asrning ikkinchi yarmi – XIV asr boshlarida — Yangi madaniyatning dastlabki kurtaklari namoyon bo‘la boshladi.

XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida — Usmoniylar davlati o‘z hududini sezilarli darajada kengaytirib oladi.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida — mo‘g‘ullar xitoyliklarning kuchli ta’siri ostiga tushib qoldilar, Xitoy madaniyati va siyosatining ko‘p qismini o‘zlashtirdilar, xitoy tilida so‘zlashadigan bo‘ldilar.

XIII–XV asrlarda — Marog‘a, Samarqand, Istanbul rasadxonalari faoliyat yuritgan.

XIII–XV asrlarda — Osiyo mamlakatlarida me’morchilik yuqori darajada rivojlandi.

XIII–XV asrlarda — Granada siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lgan.

XIII–XV asrlarda — Navarra iqtisodiy jihatdan qoloq davlat bo‘lib, Pireney yarimorolida katta ta’sirga ega bo‘lmagan.

XIII–XV asrlarda — Shimoliy Amerika hindulari qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikda bir qator yutuqlarga erishib, yirik qabilalar ittifoqini tuzgan bo‘lsalar-da, markaziy va janubiy amerikalik xalqlarga o‘xshab yirik shaharlar barpo qilmaganlar.

XIII–XV asrlarda — Mayyalar davlatida savdo-sotiq rivojlanib borib, bunda loviya va kakao urug‘i pul vazifasini bajargan.

XIII–XV asrlarda — qurilgan Yevropa me’morchiligining asosiy uslubi bo‘lgan gotika cherkovlari, avvalo, eski cherkovlarga qaraganda ancha baland edi.

XIII–XV asrlarda — Shaharlarda yarmarkalar, qishloqlarda esa mavsumiy bayramlarda ko‘ngilochar tomosha qo‘yishni kasb qilgan kishilar Fransiyada **jonglyor**, Germaniyada **shpilman**, Angliyada **menestrel** deb atalgan, ular faoliyatining gullagan davri **XIII–XV asrlarga** to‘g‘ri kelgan.

XIV asrga qadar — Yevropada shahar uylarining bir qismi toshdan, asosiy qismi esa yog‘ochdan qurilgani bois yong‘in chiqqanida, juda katta talafot ko‘rilar edi.

XIV asrda — Litva knyazi Smolenskni egallab oldi va bu yerda o‘z hukmronligini o‘rnatdi.

XIV asrda — Fransiyada toifaviy monarxiya — markazlashgan davlat vujudga keldi.

XIV asrda — Angliya va Fransiya o‘rtasida uzoq davom etgan Yuz yillik urush boshlandi.

XIV asrda — Rus yerlarida mo‘g‘ullar istibdodiga qarshi kurash yanada kuchaydi.

XIV asrda — Angliyada “Robin Gud haqida ballada” o‘rta asr qahramonlik eposi paydo bo‘ldi.

XIV asrda — Ikkinchi Bolgariya podshohligi Tirnovo, Vidin va Dobruja kabi uchta mustaqil davlatga bo‘linib ketdi.

XIV asrda — Dehli sultonligi yirik davlat bo‘lib, uning tarkibiga Shimoliy Hindistondan tashqari, Markaziy Hindiston viloyatlari va Dekan yassitog‘ligidagi mulklar ham kirgan.

XIV asrda — Italiyaning port shaharlarida karantin birinchi marta joriy qilindi.

XIV asrdan — Italiyaning bir qator shaharlari – Florensiya, Genuya, Milan va Venetsiya savdo markazlariga aylanib, Osiyo mamlakatlari bilan savdoda yetakchilik qildilar.

XIV asrdan — Angliya parlamenti qonunlar chiqarish va qirol vazirlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha Oliy sud huquqini qo'lga kiritdi.

XIV asrda — Florensiyada 200 dan ortiq movut ishlab chiqarish korxonalari mavjud edi.

XIV asrda — Florensiyada iqtisodiy va siyosiy vaziyat og'irlashdi.

XIV asrda — Chexiya iqtisodiy jihatdan yanada rivojlandi.

XIV asrda — Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqandda akademiya tashkil etilib, uning tarkibida rasadxona, madrasa va boy kutubxona faoliyat yuritgan.

XIV asrdan — Usmoniylarda **vaqf mulklari** keng tarqalib, sultonlikdagi barcha ekin yerlarining uchdan bir qismini tashkil qilgan.

XIV asr boshlarida — Kiyev knyazligi bosh ruhoniysi Pyotrning Vladimirdan Moskvaga ko'chirilishi bilan Moskva knyazligining mavqeyi yanada mustahkamlandi.

XIV asrning birinchi yarmida — Polshada siyosiy birlashuv jarayonlari boshlandi, knyaz Vladislav I birinchi bo'lib Polshani birlashtirib, qirollik mavqeyini qayta tikladi.

XIV asrning birinchi yarmida — Ibn Battuta Afrika, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy va Ispaniyaga qadar sayohat qilgan.

XIV asrning 30-yillaridan — turli viloyatlardagi elxonlar o'rtasidagi kurash va sarbadorlar qo'zg'oloni natijasida Hulokuiylar davlati bir necha mustaqil davlatlar (Muzaffariylar, Jaloyiriylar va boshqalar)ga bo'linib ketdi.

XIV asrning 40-yillarida — Sariq daryoda (Xuanxe) toshqin yuz berib, Shandun yarimoroli suv ostida qoldi hamda shimoliy yerlarni sug'orish orqali oziq-ovqat bilan ta'minlagan Buyuk kanal vayron bo'ldi.

XIV asrning o'rtalarida — Oltin O'rdada siyosiy nizolar avj olishi bilan rus knyazliklari unga qarshi birlashib, katta harbiy kuch to'play boshladilar.

XIV asrning o'rtalarida — G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ishlab chiqarish va savdo munosabatlarining yuqori darajaga ko'tarilishi hunarmandchilik gildiyalariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

XIV asr o'rtalarida — Shimoliy Germaniyaning Lyubek, Gamburg, Bremen va boshqa shaharlari Ganza savdo ittifoqiga birlashdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida — Oltin O'rdada yigirma besh yil ichida 20 ta xon almashib, markaziy hokimiyat butunlay kuchsizlandi.

XIV asrning ikkinchi yarmida — Dehli sultonligida siyosiy tarqoqlik natijasida ayrim knyazlarning mustaqillikka intilish jarayoni kuchayib, sultonlik tarkibiga kirgan viloyatlarning ba'zilar mustaqil davlatlarga aylana boshlaydi.

XIV asrning oxirida — Mali imperiyasi sulola vakillarining taxt uchun kurashlari va feodal tarqoqlik tufayli zaiflasha boshladi.

XIV asr oxirida — Oltin O'rda armiyasi hatto o'z artilleriyasiga ega bo'lishni boshlagan.

XIV asr oxiridan — Yavropada ilm va fanga nisbatan qiziqish ortib bordi, bu davrda grammatika, nutq, she'riyat, tarix, filologiya (yunon va lotin tillari) kabi gumanitar fanlarga ko'proq e'tibor berildi.

XIV asr oxirida — Yaponiya Kiotoda Oltin pavilyon qurilgan.

XIV–XV asrlarda — Italiyaning janubiy shahar-respublikalarida dehqonlarning ozod bo'lishi yuz berdi.

XIV–XV asrlarda — Italiyaning janubiy shahar-respublikalarida dehqonlarning ozod bo'lishi yuz berdi.

XIV–XV asrlarda — Portugal karvonlari Afrika, Sharqning uzoq mamlakatlari va Janubiy Amerika qit'asigacha yetib borgan.

XIV–XV asrlarda — Usmoniy turklar imperiyasi tomonidan Bolqon yarimorolidagi bosib olingan yerlarning umumiy nomi Rumeliya deb atalgan.

XIV–XV asrlarda — Oq qo'yunlilar Dajla daryosining yuqori oqimida yashagan turkman qabilalarining ittifoqi bo'lib, keyinchalik Anatoliyaga kelib o'rnamadilar.

XIV–XV asrlarda — Yaponiyada imperator va viloyatlardagi eng yirik mulkdor – daymyolar syogunga qarshi kurashi markaziy hokimiyatning zaiflashishi va mahalliy hokimiyatning kuchayishiga olib keldi.

XIV–XV asrlarda — Ispaniyadagi korteslarning obro'si pasayib, ular juda kam yig'iladigan bo'lib qoldi.

XIV–XV asrlarda — Yevropada qimmatbaho matolar, kashta tikish, kiyimlardagi ustki bezaklar, turli chizmalar tushirilgan hashamdor kiyimlar paydo bo'la boshladi.

XIV–XV asrlarda — Yevropada 20–30 ming aholisi bo'lgan shaharlar yirik hisoblangan.

XIV–XV asrlarda — Yevropada qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatish san'ati paydo bo'lgan.

XV asr boshlarida — Ganza ittifoqi 160 ga yaqin shaharni birlashtirdi.

XV asr boshlarida — Xitoy faol tashqi siyosat yurita boshladi, bu davrdagi eng yirik diplomatik voqea admiral **Chjan Xening** ulkan dengiz ekspeditsiyalari va yurishlari bo'ldi.

XV asr birinchi yarmida — Oltin O'rda ichki ixtiloflar tufayli yemirilishi natijasida qator xonliklarga bo'linib ketdi, ulardan eng yiriklari Astraxan, Qozon, Qozoq, Qrim, Sibir xonliklari va No'g'ay O'rdasi bo'lgan.

XV asrning birinchi yarmida — Dehli sultonligi avvalgi qudratini yo'qotib, Dehli shahri va uning atrofidagi yerlarni egallagan oddiy davlatlardan biriga aylanib qoldi.

XV asrning birinchi yarmida — Choson qirolligida iqtisodiy va madaniy yuksalish yuz berdi.

XV asrning 30-yillarida — Qora qo'yunlilar tomonidan Jaloyiriylar davlati butunlay tugatiladi.

XV asr o'rtalarida — Atsteklar hukmdori Montezuma I Tenochtitlanda katta qurilish ishlarini olib bordi.

XV asrning 60-yillarida — Prussiya Polsha qiroli hukmronligi ostiga, Shlezvig-Golshteyn esa Daniya hukmronligi ostiga o'tdi.

XV asrning ikkinchi yarmida — Usmoniylar Kichik Osiyoda katta harbiy muvaffaqiyatlarga erishib, bu yerdagi barcha beyliklar ustidan hukmronlik o'rnatdilar.

XV asrning ikkinchi yarmida — Sejongning vorislari o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib, ichki ziddiyatlar natijasida qirollik kuchsizlana boshladi.

XV asrning ikkinchi yarmida — Inklar faol bosqinchilik harakatlari olib borib, shimolda Kolumbiyadagi Pasto shahridan janubda Chilidagi Maule daryosigacha bo‘lgan hududni egallaydilar.

XV asrda — Avislar sulolasidan Xuan I hukmronligidan boshlab, Portugaliyaning mustamlaka siyosati boshlandi.

XV asrdan — Portugaliya mustamlaka imperiyasi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqa boshladi.

XV asrda — Polshada butun mamlakat uchun yagona bo‘lgan umumtoifa vakillarining yig‘ini – ikki palatali seym tashkil etildi.

XV asr davomida — Angliyadagi barcha dehqonlar ozodlikni qo‘lga kiritdilar.

XV asrdan — Angliyada mustaqil xo‘jalik yurituvchi dehqonlar yomenlar deb atala boshlandi.

XV asrdan — Kipr oroli Venetsiya respublikasi tarkibiga kirdi.

XV asrda — Eron ko‘chmanchi harbiy zodagonlar hukmronlik qilgan, o‘zaro iqtisodiy jihatdan bog‘liq bo‘lmagan kichik davlatlardan iborat edi.

XV asr — Monomotapaning eng rivojlangan davri shu asrga to‘g‘ri kelgan.

XV asrda — savdo ehtiyojlarini hisobga olgan holda, Italiyadagi Medichilar, Germaniyadagi Fuggerlar va Fransiyaadagi Jak Kyor kabi bir qator savdogar oilalar ko‘p qirrali hamda keng ko‘lamli bank faoliyatiga ixtisoslasha boshlaganlar.

XV asrda — Yevropada 80 ta universitet mavjud bo‘lib, har bir universitet o‘z kasbiy yo‘nalishiga ega edi, masalan, Salamanka (Ispaniya), Monpelye (Fransiya), Salerno (Italiya) shaharlarida tibbiyot fanlari o‘rgatilgan, Bolonyada – huquq, Oksfordda matematika va astronomiyadan eng yaxshi dars berilgan bo‘lsa, Sorbonna universiteti ilohiyotchilarni tayyorlagan.

XV asr — ushbu davr olimlarining faoliyati tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

XV asrdan — Germaniya imperiyasi hududiga qarashli yerlar birin-ketin undan ajrala boshladi.

XV asrda — Mali butunlay inqirozga uchrab, Songay davlati tomonidan bosib olindi.

XV asrda — Venetsiya respublikasi O‘rta dengizning sharqiy qismida savdo monopoliyasiga aylandi.

XV asrda — Qadimgi mualliflarning tibbiyot, matematika va astronomiyaga oid asarlarining tarjimalari tabiatshunoslik asoslarini rivojlantirdi.

XV asrda — Sejong hukmronligi davrida Koreya qirollik akademiyasi tashkil etilib, unga iqtidorli yoshlar jalb etilgan.

XV asrda — Samarqandda Go‘ri Amir maqbarasi qurilgan.

XV asrda — Turkistonda Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasi qurilgan.

XV asrda — Istanbulda To‘pqopi saroyi qurilgan.

XV asr oxirida — Texnik ixtirolar tabiiy fanlar sohasidagi taraqqiyotni rag‘batlantirdi.

XV asr oxirida — Moskva knyazligi boshchiligida hokimiyat markazlasha boshladi, Oltin O‘rda qaramligidan xalos bo‘ldi.

XV asr oxirida — Xristofor Kolumb Atlantika okeani ortidagi yerlarni Hindiston deb hisoblab, mahalliy aholini hindular deb atadi.

XV asr oxirida — Fransiya markazlashgan davlat yanada mustahkamlandi.

XV asr oxirida — Fransiya birlashtirish jarayoni yakunlandi.

XV asr oxirida — Yaponiya Kiotoda Kumush pavilyon qurilgan.

XV–XVI asr birinchi yarmida — Songay davlati Sunni Ali va Muhammad I davrida har tomonlama rivojlandi.

XVI asr boshlarida — Bolqon yarimoroli, janubi-sharqiy Anatoliya, Arabiston yarimoroli hamda Shimoliy Afrikadagi egallangan yerlar hisobiga Usmoniylar hududi deyarli ikki barobar kengaydi va uch qit'ada hukmronlik o'rnatildi.

XVI asr boshlarigacha — Misr mamluklari islom va uning muqaddas shaharlari Madina hamda Makka himoyachisi bo'lib qoldilar.

XVI asr boshlarida — Inklar imperiyasi taxt vorislari o'rtasidagi kurash natijasida zaiflashib, ikki qismga bo'lindi.

XVI asr boshlarida — Yevropada yirik boylar o'zlarining dastlabki fabrikalarini tashkil qila boshladilar.

XVI asr boshida — Safaviylar Oq qo'yunlilarning asosiy kuchlarini mag'lub etib, Eronni yagona davlatga birlashtirdi.

XVI asrning oxirida — Songay davlati mamlakat ichidagi siyosiy betartiblik va ichki nizolar tufayli tanazzulga uchrab, Marokash sultonligi tomonidan bosib olinadi.

XVII asrgacha — Ganza ittifoqi qisman o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

XVII asrning oxirida — o'zaro urushlardan zaiflashgan Monomotapani shona qabilalari bosib oladi.

XIX asrdan — Ispaniya va Portugaliyada milliy qonun chiqaruvchi organ — parlament kortes deb yuritila boshlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmigacha — Bolgariyada turklar hukmronligi davom etdi.

Tuzuvchi: Bahrom Hikmatov



TARIX FANIDAN PROFESSIONAL ONLAYN KURS

Milliy sertifikat • Attestatsiya • Tarix fanini mukammal o'zlashtirish
Bilim, tajriba va tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan onlayn kurs.

Kurs afzalliklari:

- ◆ *Mavzularning sodda va chuqur tahlili;*
- ◆ *Imtihon formatidagi testlar va batafsil yechimlar;*
- ◆ *Zamonaviy metodika asosida olib boriladigan darslar;*
- ◆ *Natijaga yo'naltirilgan samarali tayyorgarlik.*



Ustozlar jamoasi:

Zaxiriddin Jumanazarov ☎ +998905216022

Bahrom Hikmatov ☎ +998944111223

Husanboy Xoldorov ☎ +998 936786877



Darslar onlayn formatda



Murojaat uchun:

+998 94 273 17 73



Telegram orqali murojaat:

@Sodiqjon_Abduganiyev

BAHROM HIKMATOV